# ISLOM IQTISODI VA MOLIYASINING O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Sohibnazarov Abdurashid**

*https://doi.org/10.5281/zenodo.13764851*

Islom iqtisodiyoti – iqtisodiy munosabatlarni islom dini asosida belgilab qo‘yilgan talablar orqali tartibga soluvchi tizim bo‘lib, bugungi kunda 80 dan ortiq mamlakatlarda tarqalgan 3,9 trillion dollarlik sanoatdir. Islom moliyasi esa, pul munosabatlarini islom huquqi qoidalariga asosan boshqariladigan moliyaviy tizimdir. So‘nggi o‘n yil ichida islomiy moliya yiliga taxminan 10% ga o‘sdi. 2023 yilgi Global Islom Iqtisodiyotining holatining hisobotiga ko‘ra, 2026 yilga borib shariatga mos keladigan jami aktivlar 5,95 trillion dollargacha o‘sishi mumkin.

Dunyoda o‘ziga xos o‘rin va mavqe egallab kelayotgan islom iqtisodiyoti va moliyasi ayni paytda yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o‘sib bormoqda, islom moliya institutlari esa dunyo bo‘ylab umumiy qiymati **2,7 trillion dollardan** ziyod aktivlarni boshqarmoqda. Yuqoridagi ko‘rsatgichlarning amalga oshishida islomiy banklar (yoki islomiy darchalar)ning roli yuqori desak also xato bo‘lmaydi. Aynan ana shunday banklardan biri Islom taraqqiyot banki (ITB)dir, u dunyo musulmon jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashib, dunyo aholisining 1/5 qismi hayotiga ijobiy ta’sir qilmoqda. Islom taraqqiyot banki 50 yildan buyon o‘ziga a’zo bo‘lgan davlat (hozirda 57 ta)larning hamda a’zo bo‘lmagan davlatlardagi musulmon jamoalarining har tomonlama rivojlanishlari uchun moddiy ko‘mak beradi (ustav jamg’armasi 150 milliard dollar).

Islom taraqqiyot banki (arab.البنك الإسلامي للتنمية) – ko‘ptarmoqli moliya instituti bo‘lib, 1974 yil Birinchi Islom Konferensiyasi Tashkiloti (hozirda Islom Hamkorlik Tashkiloti) tomonidan arab mamlakatlari Moliya vazirlari tomonidan ta’sis etilgan. Uning asosiy maqsadi – barqaror infratuzilmani ta’minlash va har tomonlama inson rivojlanishini rag‘batlantirish, yashash sharoitlarini yaxshilash va salohiyatlarini namoyon qilish imkonini berish orqali a’zo mamlakatlarning rivojlanish sa’y-harakatlariga hissa qo‘shishdir. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, islom moliyasi faqatgina musulmonlar uchun xizmat qilmaydi, balki undan barcha birdek foydalanishi mumkin. Aynan shu sababli ham hozirda musulmon bo‘lmaganlar orasida ham sezilarli darajada ortmoqda.

Yurtimiz Islom taraqqiyoti bankiga 2003 yilda a’zo bo‘lgan bo‘lsa to hozirgi kunga qadar 162 ta loyihalardan 74 tasi bajarilgan bo‘lib, 88 tasi esa hozirda amalga oshirib kelinmoqda. Shu loyalar asosida jami moliyalashtirish 3,9 milliard dollarni tashkil etadi. Bu esa, Markaziy Osiyo davlatlari ichidagi eng yuqori ko‘rsatgichdir.

Islom banklarining asosiy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – foizli kreditlarning berilmasligidir. 2020 yilning boshida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi doirasida “O‘zbekistonda islomiy moliya mahsulotlari tahlili” bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot doirasida so‘rovnoma o‘tkazilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad – aholi va tadbirkorlar o‘z moliyaviy ehtiyojlarini amaldagi bank-moliya muassasalari orqali qanchalik darajada qondira olayotganligi, bu jarayonda ular qanday (rasmiy va norasmiy) to‘siqlarga duch kelayotganligi, hamda ular tomonidan islom moliya muassasalari va ularning moliyaviy mahsulotlariga bo‘lgan talabni o‘rganish, hamda islom moliyasini mamlakatda tadbiq qilish masalasida biror bir taklif kiritishdan oldin tadbirkorlar, banklar va aholining bu masaladagi fikrini bilishdir. O‘tkazilgan so‘rovnomada rasmiy bank-moliya muassasalari kreditlaridan foydalanmaslik sabablari sifatida

respondentlar – biznes va jismoniy shaxslar uchun eng asosiy muammo an’anaviy kreditlarning islom dini talablariga mos emasligini keltirilgan. Xususan, tadbirkorlarning 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an’anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini, foydalanmaslikning boshqa sabablari sifatida esa, foiz darajasining yuqoriligi, murakkab talablarning mavjudligi, hamda kreditlardan foydalanish zarurati yo‘qligi ko‘rsatilgan.

Islom banklari bilan muloqot hamkorlar, investorlar, treyderlar, xaridorlar va sotuvchilar sifatida amalga oshiriladi. Odatiy banklarda esa, bu kabi munosabatlar mavjud emas, faqatgina kreditorlar va qarz oluvchilar bor xolos. Bu banklar daromadlarini kafolatlaydi, islomiy moliyada esa foyda va zarar taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

An’anaviy banklar asosiy e’tiborni kreditlashga, islom banklari sarmoyaga qaratadi. Shuni ta’kidlash kerakki, foiz bo‘lmasa ham ko‘rsatilgan xizmatlar yoki tovarlar savdosidan tushadigan daromad foyda ko‘rish uchun asosdir. Shuningdek, Islom banklari kapitalning egasi bilan sarmoyodor o‘rtasida risk taqsimotini tasdiqlaydi. Bu o‘z navbatida ikki taraf uchun ham foydalidir. Bu jihatlar esa o‘z navbatida ichki investitsiyaga qulay muhit yaratadi, ichki va tashqi investitsiya hajmining ortishiga, tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, “halol” mahsulot va xizmatlar bozori rivojlanishiga olib keladi. O‘zbekiston aholisining 96,50 foizini musulmonlar tashkil qiladi, shuni inobatga olgan holda islomiy bank va moliya xizmatlarining joriy etilishi mamlakat iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari yanada yuqorilashiga sabab bo‘ladi.